

**QONUNCHILIGIMIZDA YANGI SAYLOV TIZIMI****Abdulhaqov Bunyod Sherzod o'g'li***Andijon qishloq xo'jaligi va agrotexnologiyalar instituti Yurisprudensiya (faoliyat turlari bo'yicha) ta'lim yo'nalishi talabasi**E-mail: [bunyodabdulhaqov8@gmail.com](mailto:bunyodabdulhaqov8@gmail.com)*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada saylov so'zining manosi, saylov tizimi tarixi, fuqarolarning saylov huquqi, saylov tizimining qonunchiligimizdagi tutgan o'rni, majoritar va proporsional saylov tizimi, qonunchiligimizdagi yangi saylov tizimi.

**Kalit so'zlar:** saylov huquqi, saylov tizimi, saylov tizimi tarixi, qonunchilikdagi saylov tizimi, majoritar saylov tizimi, proporsional saylov tizimi.

**Абстрактный.** В данной статье значение слова выборы, история избирательной системы, избирательная система в период после независимости, избирательное право граждан, роль избирательной системы в нашем законодательстве, новая избирательная система в нашем законодательство.

**Ключевые слова:** избирательное право, избирательная система, история избирательной системы, избирательная система в законодательстве.

**Abstract.** In this state, the meaning of the word election, the history of the electoral system, the electoral system and the period after independence, the electoral law of the city, the role of the electoral system in our legislation, the new electoral system and our legislation.

**Key words:** electoral law, electoral system, history of electoral system, electoral system and legislation.

**Kirish**

**Saylov** — ovoz berish orqali davlat organlari, mahalliy o'zini-o'zi boshqarish organlari va boshqa tuzilmalarni tashkil etish vositasi. Fuqarolarning o'z saylov huquqini amalga oshirishi — ularning davlatni boshqarishda ishtirok etishining eng muhim shakllaridan biri. Saylov o'tkazish tartibi va qoidalari, odatda, har bir davlatning konstitutsiyasi va boshqa konstitutsiyaviy huquqiy hujjatlarda belgilanadi. Saylov turli ko'rinishda bo'ladi. Unda aholi qatnashishi yoki ularning vakillariga ishtirok etishi mumkin.

**Asosiy qism**

Qadimiy davrlarda insonlar o'z yetakchilarini ovoz berish orqali aniqlagan. Umumxalq kengashlarida xalq o'z yetakchilarini saylagan. Shu tariqa hukmronlikning dastlabki ko'rinishlari shakllangan. Bu esa ibtidoiy davrning o'ziga xos demokratiyasi edi. Bugungi barcha demokratik davlatlarda o'tkaziladigan saylovlar uzoq tarixga ega. Zamonaviy saylovlar tarixi, mamlakatning siyosiy hayotiga o'z hissasini qo'shgan va xalq yig'ilishlarida barcha ozod fuqarolar ishtirok etgan. Qadimgi Yunoniston va Rimda saylovlarda xalq istagi mamlakat



qonunchiligining asosini tashkil qilgan. Yunonistonda ochiq ovoz berish va qur'a tashlash yordamida maxfiy ovoz berish usuli qo'llanilgan. Saylov "varaqa" vazifasini loviya doni bajargan: oq rangli loviya "ijobiy" javobni, qora rangli loviya "salbiy" (qarshi) javobni bildirgan. Qadimiy Afinada yana bir maxfiy ovoz berish usuli mavjud bo'lgan. Unga ko'ra, faoliyati davomida demokratiya asoslariga xavf solinishi ehtimoli kuzatilayotgan davlat arbobini xalq mamlakatdan tashqariga quvg'in qilish huquqiga ega bo'lgan. Quvg'in bo'yicha ovoz berish jarayonida ishtirok etayotgan fuqaroga sopoldan yasalgan buyum taqdim etilgan. Fuqaro Afinadan quvg'in qilinishi kerak bo'lgan odamning ismini sopol buyumga yozgan va buyumni shahar maydonida tashkil etilib, qo'riqlanadigan maxsus joyda qoldirgan. Qaysi davlat arbobining nomzodi ko'p ovoz olsa, o'sha shaxs quvg'in qilingan. Qadimiy Rimda saylovoldi tadbirlari saylovlar o'tkazilishidan ancha ilgari boshlangan. Nomzod hukumat a'zolariga saylovlarda ishtirok etishi to'g'risidagi xohishini bildirgan. Shundan so'ng saylovoldi tadbirlari boshlangan. Saylovoldi tadbirlari quyidagicha o'tkazilgan: nomzod oq libos kiyib (oq rangli libos nomzodning xalq oldida vijdoni toza ekanligini anglatgan), saylovchilardan unga ovoz berishlarini va qo'llab-quvvatlashlarini so'rab, bozor va maydonlarga yo'l o'lgan. Saylov kuni saylovchilar maxsus taxtachalarga o'zlari ovoz bergan nomzod ismini yozib katta savatga tashlagan. Yunonlarning erkin jamiyat, tenglik kabi qarashlari (miloddan avvalgi V - I asrlarda) keyinchalik Rim imperiyasi tomonidan ham faol tatbiq etilgan. Mamlakat mustaqilligining asosi o'z xohish istaklarini xalq kengashlarida bayon etib keladigan xalq hisoblangan. Xalq kengashlarida qonunlar qabul qilingan va bekor qilingan, tinchlik bitimlari tuzilgan hamda urushlar e'lon qilingan, xalq vakillari, din arboblari saylangan, chiqarilgan sud hukmlari muhokama qilingan, mamlakat hayotiga oid eng muhim qarorlar qabul **qilingan**. Belgilangan tartibga ko'ra, saylash huquqiga ega mahkumlar qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan saylov uchastkalaridagi saylovchilar ro'yxatiga kiritiladi. Saylovchilarning ro'yxatlari esa mazkur muassasalar rahbarlari tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar asosida uchastka saylov komissiyasi tomonidan tuziladi va saylovchilar yagona elektron ro'yxatiga kiritiladi. Agarda harakatlanish erkinligi cheklangan muassasalarda mahkumning saylash huquqi bo'la turib unda ishtirok etishiga to'sqinlik qilish holatlari bo'yicha murojaatlar kelib tushsa, ular darhol joyiga chiqib o'rganiladi. Saylov kuni qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarining ma'muriyati mahkumlarning saylov uchastkasiga kirib chiqishi va xavfsizligini ta'minlashi, shuningdek, ichki tartib-qoidalariga rioya etishi uchun mas'ul hisoblanadi. Qamoqda saqlash va ozodlikdan mahrum etish joylarida tuzilgan uchastka saylov komissiyalari mazkur



muassasalarning ma'muriyati bilan birgalikda saylovchilarni saylov to'g'risidagi qonunchilik hujjatlari, saylovga tayyorgarlik ko'rish, uni o'tkazish jarayonlari, saylov o'tkazish vaqti va tartibi hamda nomzodlar haqida xabardor qilib boradi. Shuningdek, nomzodlarga, ularning ishonchli vakillariga, siyosiy partiyalarga fuqarolar bilan uchrashuvlar o'tkazish orqali saylovoldi tashviqoti uchun teng sharoitlar yaratib berilishi lozim. Shundagina mahkumlar nomzodlar tomonidan ko'tarilayotgan tashabbuslar asosida ulardan birini tanlaydi va saylash huquqidan foydalanadi. Saylov kodeksining 7 moddasida Yashirin ovoz berish saylovchining xohish-irodasi ustidan har qanday tarzda nazorat qilish imkoniyatini istisno etadigan tegishli sharoitlarni yaratish orqali ta'minlanishi belgilangan. Ta'kidlash lozimki, O'zbekiston Respublikasining Saylov kodeksida O'zbekiston Respublikasining barcha fuqarolarining, shu jumladan, jismoniy imkoniyati cheklangan shaxslarning huquq va erkinliklar tengligi kafolatlangan. Shuningdek, O'zbekiston BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyani ratifikatsiya qilgan bo'lib, uning 29 moddasida ishtirokchi davlatlar nogironlarning siyosiy huquqlarini va boshqalar bilan teng ravishda foydalanish imkoniyatlarini kafolatlashi va nogironlar boshqalar bilan teng ravishda siyosiy va ijtimoiy hayotda bevosita yoki erkin saylangan vakillari orqali samarali va har taraflama ishtirok etishlari, shu jumladan saylash va saylanish huquqlari va imkoniyatlariga ega bo'lishlarini, jumladan, ovoz berish tartiblari, binolari va materiallari anglash va foydalanish uchun mos va oson bo'lishini ta'minlash majburiyatlarini olishi belgilangan. Nogironligi bo'lgan shaxslar saylovlarda ishtirok etish orqali nafaqat o'z siyosiy huquqlaridan foydalanadilar, balki bu orqali o'zlarini jamiyatning to'laqonli a'zosi sifatida his qiladilar. O'zbekiston Respublikasi Saylov kodeksining 57-moddasiga muvofiq, saylov kuni o'z yashash joyida bo'lish imkoniyatiga ega bo'lmagan saylovchi muddatidan oldin ovoz berish huquqiga egadir. Muddatidan oldin ovoz berish saylovga o'n kun qolganida boshlanadi va saylovga uch kun qolganida tugallanadi. Saylovda O'zbekiston Respublikasining chet davlatlardagi konsullik ro'yxatida turgan yoki turmaganligidan qat'iy nazar xorijda istiqomat qilayotgan barcha fuqarolarimiz uchun o'sha davlatlarda tashkil etilgan saylov uchastkasida ovoz berish imkoniyati yaratiladi. Majoritar so'zi fransuzcha so'z bo'lib, . majorite — ko'pchilik so'zidan olingan. Majoritar saylov tizimi deganda vakillik organlariga saylovlarda ovoz berish natijasini aniqlash tushuniladi. Unda qonun bilan belgilangan ko'p ovozni olgan nomzod (yoki nomzodlar ro'yxati) muayyan okrug bo'yicha saylangan hisoblanadi. Hozirgi zamon konstitutsiyaviy huquqida nisbatan mutlaq va malakali ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar saylov tizimlari qo'llanadi. Mutlaq ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizimda berilgan va



haqiqiy deb topilgan ovozlarning umumiy sonidan mutlaq (yoki oddiy) ko'p ovoz(ya'ni 50% +1 ta ovoz) olgan nomzod saylangan hisoblanadi. Agar nomzodlardan birontasi ham yetarlicha ovoz olmasa, qayta ovoz berish o'tkaziladi, bunda nomzodlar ro'yxatida nisbatan ko'p ovoz olgan 2 ta nomzod qoldiriladi. . Nisbatan ko'pchilik ovoziga asoslangan majoritar tizim eng sodda tizim bo'lib, bunda nomzodlar orasidan o'z raqiblarining har biriga nisbatan ko'p ovoz olgani saylangan hisoblanadi. Bu tizimda ko'pincha saylovchilarning qo'llab quvvatlashiga ega bo'lmagan partiya parlamentda ko'p o'ringa ega bo'lishi mumkin. AQSh, Buyuk Britaniya va boshqa bir qancha davlatlarda majoritar tizimning ana shunday shakli qo'llanadi. Bir mandatli majoritar tizimda bir okrugdan bir deputat saylanadi. Proportsional saylov tizimi— ko'p mamlakatlarda qo'llaniladigan saylov tizimining bir turi. Majoritar saylov tizimi esa uning boshqa turi hisoblanadi. Proportsional saylov tizimi har xil turga ega. Umumiy tarzda uning mazmuni quyudagilardan iborat. Davlat yoki vakillik organlari huddiy yagona saylov okrugi deb e'lon qilinadi. Siyosiy partiyalar va harakatlar, ularning ittifoqlari (saylov uyushmalari, bloklari) o'z nomzodlari ro'yxatini ilgari surishadi. Saylovchi siyosiy partiya, harakatlar ularning rahbarlari va a'zolariga bo'lingan munosabatlardan kelib chiqqan holda, shunday ro'yxatlarning biriga ovoz beradi. Bunday holatda g'alaba qozonish saylov uyushmalarining taqdim etgan ro'yxati uchun berilgan ovoz soniga qarab proportsional bo'ladi, ammo ovozlarni hisoblash 5 % ko'p ovoz yiqqan ro'yxat bo'yicha olib boriladi. (Masalan Rossiyada 5 %, Shvetsiyada 4 %, Argentinada 3 %, Daniyada 2 %, Isroilda 1 %ni tasgkil qiladi ). Saylovda ishtirok etgan saylovchilar ovozining umumiy soni proportsional saylov tizimi bo'yicha deputatlar mandatining umumiy soniga bo'linadi va buning natijasida xususiy saylov degan ma'no hosil bo'ladi. So'ng, har bir nomzod uchun berilgan ovozlar soni xususiy saylovga bo'linadi. Shunday qilib, partiyalar, harakatlar vakillik organida qancha o'rin olganliklarini bilib oladilar . Ro'yxat ichidagi o'rinlarni (mandatni) nomzodlar birinchisidan boshlab navbatga ko'ra oladilar. Agarda ro'yxat markaziy qism va mintaqaviy guruhlariga taqsimlangan bo'lsa, unda birinchi bo'lib parlamentga markaziy qism nomzodlari o'tis Bu loyiha konstitutsiyaviy qonun loyihasi bo'lib, bir nechta qonunga o'zgartirish va qo'shimchalar kiritilyapti. Jumladan, "Saylov to'g'risida"gi, "Referendum to'g'risida"gi, "Oliy Majlis qonunchilik palatasi to'g'risida"gi, "Senat to'g'risida"gi va boshqa qonunlarga. Bularning ichida Markaziy saylov komissiyasining ishlash mexanizmi, saylov komissiyalari tuzilishi va ularning vakolatlariga o'zgartirishlar kiritilyapti. Eng asosiy o'zgarish Qonunchilik palatasiga bo'ladigan saylov tizimini o'zgartirish borasida bo'ladi. Jumladan, amalda Qonunchilik palatasiga 150 ta



deputat har bir okrugdan majoritar yo‘l bilan saylanadi. Endi 75 okrug bo‘lyapti. Va barcha 75 ta okrug bitta bo‘lib partiyalarga ovoz berish amaliyoti ham joriy qilinyapti. Bunda saylovchi shaxsga emas, partiyaga ovoz beradi. Amaldagi tartibda mutlaq eng ko‘p ovoz olgan deputat saylanar edi. Juda ko‘p muammolar bo‘lardi bunda. Qayta saylov bo‘lmasligi, ovoragarchilikdan qochib, saylov qoidalarini buzib ko‘proq ovoz olgan nomzodga ovoz qo‘shish holatlari bo‘lardi. Endi mutlaq ko‘pchilik emas, nisbatan ko‘pchilik ovoz bersa, yetarli bo‘ladi saylanishga. Saylov jarayonlarini osonlashtiradi bu. men saylovga borganimda 5 ta partiya ro‘yxati bo‘ladi saylash uchun. Va men bitta partiyani tanlab ovoz beraman. Partiyalar o‘z reputatsiyasini yaxshiroq ko‘rsatish orqali ovoz oladi, shuning uchun partiyalar o‘z dasturlari va imiji ustida kuchli ishlaydi. Partiya tepasidagi odamlarni ham xalq taniydiganlardan tanlashga harakat qilishadi, bu esa partiyalarni kuchaytiradi.

### **Xulosa**

Aralash tizim ko‘plab davlatlarda mavjud. Majoritar tizimda bir shaxs saylanar ekan, bu ham avtoritar ko‘rinishda bo‘ladi. Jamiyat bu jarayonlarga bee‘tiborligiga sabab saylovga, parlamentga va partiyalarga ishonch biz kutganday yuqori emas.

### **Foydanilgan adabiyotlar:**

1. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi
2. O‘zbekiston Respublikasi Saylov kodeksi
3. BMTning Nogironlik huquqlarini himoya qilish to‘g‘risidagi konvensiya
4. Markaziy Saylov Komissiyasi internet sahifalari
5. Jumayev, F. B. (2023). Legal Services for Collection of Expenses: Problems and Proposals. *Multidisciplinary Journal of Science and Technology*, 3(6 (International Scientific Researcher)), 9-13.
6. 니고라. (2017). Empowering Women Sports Leaders in Uzbekistan A critical analysis of transforming the role of Women in Sports Management (Doctoral dissertation, 서울대학교 대학원).
7. Sattarova, D. (2024). SIYOSIY MULOQOTNING PRAGMATIK ASPEKTLARI. *TAMADDUN NURI JURNALI*, 5(56), 380-383.
8. Махмудова, Г. Н., & Гуломова, Н. Ф. (2023). Unlocking the potential of the digital economy in the EAEU countries: identifying and overcoming obstacles. *π-Economy*, 16(4), 7-25.
9. Sattarova, D. (2024, January). SIYOSIY NOTIQLIKNING MILLIY MADANIY VA LISONIY TAHLILI (O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI BIRINCHI PREZIDENTI IA KARIMOV NUTQLARI ASOSIDA). In *Международная конференция академических наук* (Vol. 3, No. 1, pp. 5-7).